



O'ZBEKISTONDA AJRALISHNING IJTIMOIIY-ETNOPSIXOLOGIK MUAMMOLARI VA ULARNING OLDINI OLISH YO'LLARI

Yuldashova Maxsudaxon Nishonboyevna

Namangan viloyati Pop tumani MMTBga

qashli 34-sonli umumiy órta ta'lim

maktabining amalyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda ajrim holatlari va ularning kelib chiqish sabablari, hamda ajrimlarning oldini olish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Oila, oilaviy munosabatlar, ajrimlar, cfarzand tarbiyasi, oilani mustahkamlash..

Gap nikoh-oila munosabatlari haqida borar ekan, shubhasiz jiddiy muhokama qilinadigan masalalar qatorida nikoh-oila munosabatlarining buzilishi, er-xotinlarning ajralish muammosi turadi. Nima uchun oilalar buziladi? Ajralish o'zi nima? Ajralish bu yaxshimi yoki yomonmi? Oilalarning ajralishiga yo'l qo'yish kerakmi?

Ajralish muammosi hozirgi kunda jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Oilaviy ajralishlarning mavjudligi ham respublikamizda keng jamoatchilik e'tiborini o'ziga jalb etib, bu muammoning yechimini topish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rishga undaydi. Chunki, yuqorida aytib o'tilganidek, ajralish natijasida millionlab odamlar-birinchi navbatda bolalar, ayollar, erkaklar va hatto ajralishlarning yaqinlari ham "ma'naviy farovonlik"oladilar.

Ajralish muammosi hozirgi zamon insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun chet ellarda ham, O'zbekistonda ham



ajralish muammosini o'rganishga keng ilmiy jamoatchilik e'tibori qaratilib kelinmoqda. Bu muammoni turli soha mutaxassislari: yuristlar, demograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar, psixologlar va boshqa fan sohalari mutaxassislari o'rganmoqdalar. Ularning e'tibori bu hodisa sabablari, omillari, motivlarini o'rganish, ularni bartaraf etish, ajralishlarning salbiy asoratlarini kamaytirish masalalariga qaratilgan. Chunki oilalarning buzilishi tufayli nafaqat shu ajralishgan er-xotin va ularning farzandlari, balki jamiyat ham ko'p zarar ko'radi. Ajralishlar ko'plab noxush hodisalar: noto'liq oilalar sonining ortishi, bolalar va o'smirlar o'rtasida qonunbuzarlikning ko'payishi, pedagogik nazoratsiz qolgan bolalar sonining ortishi, yolg'izlik, sobiq er-xotinlar va qarindoshlarning o'zaro munosabatlarining yomonlashuvi kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bu o'rinda haqli ravishda agar ajralishlar shu qadar salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradigan bo'lsa, uni rasmiy ravishda ta'qiqlab qo'ysa bo'lmaydimi? — degan savol yuzaga kelishi mumkin. Albatta mumkin, masalan, dunyoning ayrim davlatlarida, jumladan, Italiya, Niderlandiyada yaqin-yaqin zamonlargacha ajralish huquqiy jihatdan nihoyatda murakkab jarayon edi.

Ajralishlarning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlari mavjuddir. Bu xususiyatlar oilalarning buzilishiga olib keladigan sabablar, ularning amalga oshish jarayoni, oqibatlari, ajralishgacha va undan keyingi davrlardagi erxotinlarning ahvoli kabilarda ifodalanadi. Shunday xususiyatlardan biri ajralish niyatini bildirib rasmiy tashkilotlarga murojaat qiluvchi ajralish tashabbuskori kim ekanligida namoyon bo'ladi. Sharq oilalarida, ayniqsa o'zbek (qishloqlarda) oilalarida ajralish tashabbuskori ko'proq erkaklar bo'ladilar va aksincha, Yevropa xalqlari oilalarida, yosh oilalarda va urbanizatsiyalashuv darajasi yuqori bo'lgan shahar oilalarida ajralish tashabbuskori ko'proq ayollar bo'ladi.

O'zbek oilalarida ajralishlarning o'ziga xos xarakteri, ya'ni boshqa (ayniqsa chet mamalakatlaridan) millatlardan farq qiluvchi qanday jihatlarga ega? Bu quyidagi ob'ektiv omillarga bog'liq bo'lishi mumkin: birinchidan, qishloq joylarda ajrashgan ayol erkakka nisbatan jamoatchilik tomonidan ko'proq tanqidiy muhokama qilinadi. Ikkinchidan,



qishloq joylarda ajralishgandan so'ng ayollarning ahvoli erkaklarga nisbatan yomonlashadi, negaki o'zbek millatidagi o'ziga xos urf-odatlar o'zbek ayolining uy-joylarni eriga qoldirib, o'z ota-onasinikiga(uning aka-ukalari o'z oilasi, xotini, bolalari bilan yashayotgan va ajrashgan ayol uchun ahvolni yanada jiddiylashtiruvchi joyga) borib yashashga majbur bo'ladilar. Uchinchidan, qishloq ayollarida ajralishgandan so'ng qayta oila qurish imkoni nihoyatda kamdir. Mana shu ob'ektiv sabablarni hisobga olgan holda qishloq joylardagi o'zbek ayollari muammoli (er-xotin orasidagi munosabatlar nihoyatda ziddiyatli, nizoli, ular orasidagi mehr-oqibat yetarli ifodalanmagan oila) nikohga ham ko'nikib yashayveradilar. Ba'zi ayollar, aslida eri bilan birga yashamayotgan bo'lsalar-da (hatto yillab), erlaridan «o'ch olish» maqsadida, uning boshqaga uylanishiga yo'l qo'ymaslik uchun rasmiy ravishda, sud orqali ajrashishga ko'nmaydilar. Qishloq joylardagi ajralishgan erkaklar ayollarga nisbatan bir muncha imtiyozli vaziyatda bo'ladilar: ular ajralishgandan so'ng o'z yaqinlari tomonidan ko'proq qo'llab-quvvatlanadi. Bolasi yo'q bo'lgan holatda esa ajralishgan erkak uchun turmushga chiqmagan ayolga uylanish sezilarli darajada muammo tug'dirmaydi. Noto'liq oiladagi bolalar tarbiyasi. Noto'liq oila haqida gapirilganda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, noto'liq oilalar ham turlicha yuzaga keladi. Oilalar erxotinlardan birining vafot etganligi tufayli yoki ularning ajralishi tufayli noto'liq bo'lib qolishi mumkin. Albatta oilada ota yoki onaning vafot etishi bu ulkan fojia, avvalo bu fojia hech kimning boshiga tushmasin, lekin bunday oilalarda marhumning ruhi hurmati, unga nisbatan, uning sha'niga ijobiy munosabatlar saqlanib qoladi. Biroq er-xotinning ajralishi sababli yuzaga kelgan noto'liq oilalarda «tirik yetim» bolalar qoladi. Birinchidan, «tirik yetimlik» jamoatchilik o'rtasida, ayniqsa bolalar jamoalarida (bog'chada, maktabda, tengdoshlar davrasida) nisbatan kuchliroq qoralanadi. Ikkinchidan, bunday oilalarda ota yoki ona tomonidan, ularning yaqinlari tomonidan sobiq turmush o'rtog'i sha'niga, uning shaxsiyatiga salbiy bo'yoqlar beruvchi munosabatlar shakllanadi. Sobiq er-xotinlar tomonidan bir-birlarini qoralovchi fikr-mulohazalar ko'proq bildiriladi. Bular albatta, bu toifa noto'liq oilalardagi o'zaro munosabatlarning shakllanishida qator noxushliklarning yuzaga kelishiga asos bo'ladi.



Ajralish faqatgina ajralgan er-xotinlar emas, balki ajralish oqibatida otasiz yashayotgan farzandlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatar ekan. Ayniqsa ajralish otasiz o'sayotgan qiz bolaning his-tuyg'ulariga, otasiga bo'lgan mehriga, qiz bolada shakllanadigan ota obraziga va otasiz o'sayotgan qizning ruhiyatiga kuchli salbiy ta'sir qiladi. Bu esa nafaqat qiz bolaning bolalik davrida balki kelgusida o'zi mustaqil oila qurganda ham o'z asoratini ko'rsatishi mumkin.

Ajralishlarning oldini olish uchun nima qilish kerak?

Bilamizki, oilalar tinchligi va mustahkamligida oila boshlig'i erkaklarning o'rni hamda ma'sulyati juda katta. Chunki hayotning uning qiyinchiliklarini ular o'z yelkalariga oladilar. Afsuski, amalyotda ko'rib turumizki, erkaklarning oilaviy munosabatlarda o'z o'rnini yoqotib qoyoyotgani, yani ikkinchi darajaga tushub qolayotgan holatlar ham yo'q emas. Xo'sh, muammolarning oldini qanday olish zarur? Avvalo, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlab borish zarur. Bu juda muhim ahamiatga ega. Unga bir qator omillarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi, yani oyladagi ajirimlarni oldini olishga asosan, yoshlarni oila ilmiga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Ularda oila muqaddas qo'rg'on ekanligi to'g'risidagi targ'ibot-tushuntirish ishlarini butunlay yangi bosqichda, yangi noodatiy usul va yondoshuvlar asosida olib borish kerak. Yoshlar oila atalmush muqaddas dargoh ostonasiga qadam qo'yar ekan “Men oila qurushga tayyormanmi? Oilam mustahkam bo'lishi uchun nimalar qilishim kerak?” degan savollarni o'ziga bersa, mustahkam hayotrga yuzaki emas, o'ta jiddiy masala deb qarasa oilalarda paydo bo'ladigan ba'zi bir nohush holatlarning oldi olinadi. Bugungi kunda O'zbekistonda oilaviy ajralishlarning masalasida rekord ko'rsatgich qayd etilmoqda. Bu oilalardagi minglab bolalar endi kundalik hayotini otasiz yoki onasiz davom etiradilar. Hozirgi vaqtda ajralish sabablaring psixologik sabablari er-xotinning oilaga tayyor emasligi, uchinchi shaxs aralashuvi, moliyaviy qiyinchiliklar, xiyonat, spirtli ichimliklar, giyohvandlik, uzoq vaqt birga yashamaslik va farzandsizlikdir. Qaynonalarning ham oila borasida ilmi tajribasi yo'q, tashqaridan kelgan bir qizga qanday munosabatda bo'lishni bilmaydi. Bundan tashqari oilada qaynotalarning ham roli yo'q, indama, tinch qo'y, deya



olmaydi. Bu esa oilalarda erkaklar roli pasayib ketayotganidan dalolat beradi. Bunday sabablarning eng asosiysi oilada oila ilmi yo'qligidir. Onalarimiz o'g'il bolalarni haqiqiy erkak qilib tarbiya qila olmayapti. Ammo ma'lumotlarga ko'ra so'nggi vaqtlarda ajrim uchun ko'rsatilayotgan sabablarning deyarli hech biri arzirli emas, yechimini topsa bo'ladigan muammolardir. Eng ko'p bohona sifatida ko'rsatilayotgan sabablar deb bu, yigit-qizning fe'l-atvori bir-biriga to'g'ri kelmayotgani. Buni qarangki, fe'l-atvor oiladagi tarbiya, ijtimoiy muhit, ota-ona ibratiga borib taqaladi. Shuningdek, o'rganishlar shuni ko'rsatyaptiki, qaynonalarning o'ta talabchanligi, yoshlarni oilaga yengil-yelpi qarayotganligi, muommala va tinglash madaniyati yoqligi, xiyonatning avj olayotgani kattalarning noto'g'ri aralashuvi ajirimlarga olib kelayotganini ko'rsatmoqda. Bu jaroyonga yigitlarning mustaqil fikri yo'qligi, ma'sulyatni his etmasligi ham sabab bo'layotgani ko'zga tashlanmoqda. Xo'sh, sabab va omillar aniqlangan ekan, u qanday bo'ladi? Aslini olganda keltirilayotgan sabablarning hammasi yana ta'lim-tarbiya va milliy o'zlikni anglash degan tushunchaga borib taqalmoqda. Oila qurush oson, ammo uni asrab qolish farzand-larga to'g'ri ta'lim-tarbiya berish, bu turmushning mustahkamligiga yordam beradi. Keyingi vaqtlarda er-xotinning oiladagi o'zni o'zgarayotgani azaliy an'analarimizga yot ravishda turli salbiy illatlar o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimizga oilalar mustahkamligini ta'minlash, ajirimlar sonini kamaytirish maqsadida birinchi navbatda quydagilarga ahamiyat berish kerak: oila ma'sulyatini his qilish kerak; yaqin qarindoshlar bilan turmush qurmaslik; bir-biriga nisbatan o'zaro hurmat; turmushga tayyor bo'lishlari lozim; oilaviy hayotga qarindoshlar aralashmasligini ta'minlash; erta yoshda oila qurmasliklari lozim; hayotga ruhiy tamonlama tayyor bo'lish lozim; bir-birini yaxshi o'rganish kerak; uy-joy bo'lishi kerak; ota-ona maslahatiga quloq solish kerak; har ikkala tomon ham ish bilan taminlangan bo'lishi kerak; tibbiy ko'rikdan o'tishlari zarur; din va diniy tarbiyaga



ko‘proq e’tibor qaratish lozim; ikki tomon ham birbiriga moddiy jihatdan teng bo’lishi; sevgi-muhabbat asosida oila qurish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A. Guluston yohud axmoq. Islom odobidan mumtoz namunalar T. 1993 yil. 120 bet.
2. Akromova F.A. oilada muamalani tashkil etish psixalogiyasi. T. “Shams ASA” 2006 - 90 bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi oila Kodeksi. Toshkent: “Adolat” 1998 yil 300 bet.
4. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixalogiyasi. T. 2003 yil 142 bet.
5. Shoumarov G‘.B. Sog‘inov N.A o‘zbek oilalarida ajralish va uning ijtimoiy psixalogik xususiyatlari. O‘zbek oilasining etnopsixalogok muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani mavzularining qisqacha bayoni –Toshkent.1993-100-112 bet.
6. E.S. Kurbonnazarovich. The scientific and philosophical analysis of the concepts of confidence and faith. Наука, инновации, образование: актуальные вопросы XXI века, 126.
7. S.K. Eronov Specific manifestation of the trust phenomenon in modern society. Academicia: an international multidisciplinary research journal. 11 (1),1772-1776.c.
8. С.Қ. Эронов. Замонавий илмий билимларнинг ёшлар дунёқарашини юксалтиришдаги ўзига хос хусусиятлари. Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 199-205.